SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences

Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-son (6-jild)

2026

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V6I4Y2026

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

***№ 4 (6) – 2026***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**TOSHKENT-2026**

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY'ATI:**

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo oʻgʻli – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar boʻlimi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod Oʻktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b,;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent,;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD).

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Joʻraboy – falsafa fanlari doktori, professor;

Gʻaybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Moʻmin – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Oʻroqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Koʻchimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov Gʻaybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Togʻayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat Gʻaybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Joʻrayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom oʻgʻli — yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD);

Sulaymanova Dildora Nazarovna – pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD).

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Poʻlatovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Boʻtayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
6-jild, 4-son (aprel, 2026). - 368 bet.

**MUNDARIJA**

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Махмудова Нигора Баротовна*
ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР ПЕНИТЕНЦИРНОГО ДЕЛА В КОЛОНИАЛЬНОМ ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ, ПО ОТЧЁТАМ РЕВИЗИИ СЕНАТОРА К.К.ПАЛЕНА .................... 10-15

*Esonov Ziyodbek Yuldashevich*
RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI VA UNING LOKAL XUSUSIYATLARI ETNOGRAFIK TAHLILI .................... 16-20

*Абдиев Рузикул Буронович*
ИСТОРИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СОХРАНЕНИЯ АРХИТЕКТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .................... 21-27

*Абдужаббаров Шерзод*
ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ, ФУНКЦИИ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СУЩЕСТВОВАНИЯ И РАБОТЫ СОВЕТА ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРА .................... 28-33

*Boymurodov Shuxrat Toshkentovich*
MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘RTA MAXSUS TA’LIM, SOHASIDA MA’NAVIY YANGILANISH .................... 34-38

*Жураева Нафиса Олимовна*
ТОПОГРАФИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ КУЛЬТОВЫХ СООРУЖЕНИЯХ НА ФОРМИРОВАНИЕ ГУЗАРОВ ГОРОДА БУХАРЫ .................... 39-45

*Safarov Akmal*
SUV XO‘JALIGI SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .................... 46-52

*Tursunova Mahliyo Sarvar qizi*
XORIJIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALAR FAOLIYATINING HUDUDIY IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTGA TA’SIRI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA, 1991- 2026 -YILLAR) .................... 53-57

*Mardiyeva Guzal Karimovna*
SAMARQAND VILOYATIDA SOVET DAVRINING DASTLABKI YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING OLIY TA’LIMGA KIRISH IMKONIYATLARI VA CHEKLOVLAR .................... 58-62

*Kenjayev Elyor Sattorovich*
YANGI O‘ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA STRATEGIK ISLOHOTLAR: TARAQQIYOT VA MA’NAVIY YUKSALISH UYG‘UNLIGI .................... 63-70

*Polvonov Kozimbek Naimovich, Polvonov Anvar Naimovich*
QASHQADARYODAGI YETAKCHI O‘QUV DARGOHLARIDAN BIRI .................... 71-79

*Mo‘minova Gavxar Esanovna*
O‘ZBEKISTON SAVDO TARIXINI O‘RGANISHDA DAVLAT ARXIVLARI HUJJATLARINING O‘RNI .................... 80-85

*Norboyev Sarvar Qahramon o‘g‘li*
O‘ZBEKISTON TARIXIY SHAHARLARINING XALQARO MIQYOSDA TAN OLINISHI .................... 86-90

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI


*Tillabaeva Umida Makhsumovna, Talipova Nigora Tulkunovna*
DIGITALIZATION AND EMPLOYABILITY:
A BIBLIOMETRIC ANALYSIS OF RESEARCH TRENDS (2018–2025) ........ 91-100

*Xudoyorov Lochinbek Bahromovich*
O‘ZBEKISTON SERVIS SOHASIDA XIZMATLAR SIFATI KO‘RSATKICHLARINING DINAMIK TAHLILI ........ 101-107

*Toxirov Akbarxon Toirxon o‘g‘li*
INNOVATSION MARKETING INDEKSI ASOSIDA KORXONALARNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI ........ 108-113

*Ismoilov Bekzod Muxidinovich*
GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURIZM SOHASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI ........ 114-118

*Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich*
O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING IJTIMOIY-IQTISODIY OQIBATLARI KELIB CHIQISHI ........ 119-135

*Nishonova Shaxnozaxon*
ZAMONAVIY IQTISODIY TIZIM SHAROITIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH YONDASHUVLARI ........ 136-140

*Fayziyeva Aziza Azamat qizi*
SURXONDARYO VILOYATIDA KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINING BANDLIK KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIRI: ARIMA MODELI ASOSIDA PROGNOZ VA TAHLIL ........ 141-154


## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI


*Ismoilov Maxamadixon Isroilovich*
IQTISODIY RATSIONALIZM:
TUSHUNCHA, EVOLYUTSIYA VA NAZARIY CHEGARALAR ........ 155-165

*Beshimov Xamidjon Sayidovich*
O‘ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARINING IJTIMOIY ADOLATNI TA’MINLASHDAGI AHAMIYATI ........ 166-175

*Obidov Asliddin Shavkatovich*
SAID AD-DIN AL-FARG‘ONIY TA’LIMOTIDA ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK ASOSLAR ........ 176-181

*Abduraxmov Xasan Ibroximovich*
KOGNITIV-AXBOROT MUHITINING SUN’IY INTELLEKT SHAROITIDA YOSHLAR IJODKORLIGI VA TASHABBUSKORLIGIGA TA’SIRI ........ 182-188

*Xolova Umida Umedovna*
“O‘RTA ASRLAR FALSAFIY TAFAKKURIDA MA’RIFAT KONSEPSIYASINING TARIXIY-FALSAFIY EVOLYUTSIYASI: TEOLOGIK VA MA’RIFIY BOSQICHLAR TAHLILI” ........ 189-192

*Rajabova Rohila Zakirovna*
AHMAD DONISH'S PHILOSOPHICAL VIEWS IN HIS WORK "NAVODIR UL-VAKOE" ........ 193-197

*Kabulov Jahongir Bakhodirovich*
SEPARATIZMNING ASIMMETRIK XUSUSIYATI ........ 198-202

*Eshkuvvatov Jaloliddin*
MADANIYATLARARO MULOQOTDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR SINTEZI ........ 203-210

*Jomuradov Ikrom Ilxom o‘g‘li*
IMMANUIL KANT VA ZAMONAVIY FALSAFADA NOUMENAL ERKINLIK MUAMMOSI: FENOMENAL DETERMINIZM BILAN BOG‘LIQ ANTINOMIK ZIDDIYATNING DOLZARB TALQINLARI ........ 211-215

*Rustamova Madina*
OMMAVIY MANIPULYATSIYANING DESTRUKTIV XUSUSIYATI: TAHDIDLAR VA OQIBATLAR ........ 216-220

*Yodgorov Alisher Nurmuhammadovich*
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IJTIMOIY MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI ........ 221-225

**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

*Isanova Feruza Tulqinovna*
O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINOLOGIYASINING GIBRID TABIATI: SHAKLLANISH MANBALARI, STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA FUNKSIONAL TAHLILI ........ 226-232

*Rahmatov Laziz, Baxronova Dilrabo*
ABYA YALA (LOTIN AMERIKASI) DAVLATLARI NOMLARINING LINGVOPOLITIK DISKURSI: ETIMOLOGIK VA GEOSIYOSIY TAHLIL ........ 233-241

*Quvvatova Shaxlo Choriyevna*
XOLID HUSAYNIYNING “MING QUYOSH SHU’LASI” ASARI TAHLILI ........ 242-246

*Elmuratova Zamira Xodjamuratovna*
NAQLLAR VA MAQOLLARNING FOLKLOR JANRIDAGI ROLI ........ 247-251

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

*Shayzakov Shodiyor Ibragimovich*
QONUNIY KUCHGA KIRMAGAN SUD HUJJATLARI USTIDAN APELLYATSIYA TARTIBIDA SHIKOYAT QILISHNING PROTSESSUAL-HUQUQIY ASOSLARI ........ 252-261

*Umarova Xolisxon Nomoz qizi*
O‘ZBEKISTONDA RAQOBATGA QARSHI KELISHUVLAR HAQIDA XABAR BERGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH VA JARIMALARNI KAMAYTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI ........ 262-269

*Аминова Наргиза*
ОТ СЕКУЛЯРИЗМА К ПОСТСЕКУЛЯРНОСТИ: МОДЕЛИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РЕЛИГИОЗНОГО И СВЕТСКОГО В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ ........ 270-277

*Amirov Agzamxon Aktamovich*
QURILISHDA ULUSHLI ISHTIROK ETISH TUSHUNCHASINING TAHLILI ........ 278-283

*Mamatmurodov Farrux Farxod o‘g‘li*
SUKUKNING NAZARIY POYDEVORI HAMDA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI: ZAMONAVIY KAPITAL BOZORIDAGI O‘RNI ........ 284-294

*Kabilov Sardor Asrolovich*
JINOIY JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH TURLARI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI ........ 295-300

*Nosirov Bekzod O'ktam o'g'li*
ETIL SPIRTI, ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARINI BOJXONA CHEGARASIDAN NOQONUNIY OLIB O'TISH ........ 301-304

*Сабирова Куванчай Бабамуратовна*
ГЕНДЕРНОЕ НАСИЛИЕ, УСИЛЕННОЕ ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ: ВЫЗОВЫ МЕЖДУНАРОДНОМУ ГУМАНИТАРНОМУ ПРАВУ И ПРОБЕЛЫ В ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ ........ 305-310

*Urinboyeva Muxlisa Ma'rufovna*
MEDIATSIYA INSTITUTIDA SUN'IY INTELLEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI ........ 311-318

*Majidov Islomjon Dilshod o'g'li*
YAQIN QARINDOSHLAR BILAN BOG'LIQ HOLATLARDA TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI KVALIFIKATSIYA QILISHDA INSONPARVARLIK PRINSIPINI QO'LLASH MASALALARI ........ 319-325

*Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li*
HUQUQ VA IMKONIYATLAR MUVOZANATI: O'ZBEKISTONDA GENDER ADOLAT SARI YO'L........ 326-331

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

*Qurbonova Dilafruz Toshturdiyevna*
TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSINING TARIXIY, ILMIY-ADABIY MANBALARDAGI TALQININI TALABA-QIZLARGA O'RGATISH ........ 332-337

*Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li*
SUMMATIVE ASSESSMENT AS A CONTEXT FOR DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING COMPETENCE: THE PROBLEM DIMENSION ........ 338-344

*Abdullayeva Surayyo Ashrafxanovna*
AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARIGA EGA BOLALAR TA'LIMI VA TARBIYASINING TARIXIY SHAKLLANISHI HAMDA IJTIMOIY ASOSLARI ........ 345-354

*G'affarova Dilfuza Shavkat qizi*
TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI........ 355-360

*Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich*
THE IMPACT OF VOLITIONAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE DEVELOPMENT OF BEHAVIORAL RESPONSES ENSURING EFFECTIVE SPORTS PERFORMANCE........ 361-367

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 16 March 2026
**Accepted:** 01 April 2026
**Published:** 15 April 2026

*Article / Original Paper*

# CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE TOURISM SECTOR IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

**Ismoilov Bekzod Muxidinovich**
Master's student at Oriental University
E-mail: Begzodismoilov1983@gmail.com

**Abstract.** This article explores the sustainable development trends of the tourism sector in the context of global economic changes. During the research, a comparative analysis of the indicators of the global and Uzbekistan tourism markets for 2024-2025 was conducted, and the digital transformation processes in the industry were evaluated. The article develops scientifically based proposals for forming an innovative ecosystem in tourism, implementing "Smart Tourism" technologies, and diversifying the export of services.

**Keywords:** globalization, innovative economy, tourism methodology, digital transformation, "uzbekistan-2030" strategy, smart tourism, tourism cluster, multiplier effect.

# GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURIZM SOHASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

**Ismoilov Bekzod Muxidinovich**
Oriental universiteti magstranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada global iqtisodiy oʻzgarishlar sharoitida turizm sohasining barqaror rivojlanish tendensiyalari oʻrganilgan. Tadqiqot davomida 2024-2025-yillardagi jahon va Oʻzbekiston turizm bozori koʻrsatkichlari qiyosiy tahlil qilinib, sohadagi raqamli transformatsiya jarayonlari baholangan. Maqolada turizmda innovatsion ekotizimni shakllantirish, "Aqlli turizm" (Smart Tourism) texnologiyalarini joriy etish va xizmatlar eksportini diversifikatsiya qilish boʻyicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit soʻzlar:** globalizatsiya, innovatsion iqtisodiyot, turizm metodologiyasi, raqamli transformatsiya, "Oʻzbekiston-2030" strategiyasi, Smart turizm, turistik klaster, multiplikativ samara.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N17

**Kirish.** XXI asrning uchinchi oʻn yilligiga kelib, turizm shunchaki dam olish va madaniy hordiq chiqarish vositasi chegarasidan chiqib, jahon iqtisodiyotining harakatlantiruvchi kuchi, bandlikni taʼminlovchi va hududlar infratuzilmasini rivojlantiruvchi global ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida eʼtirof etilmoqda. Bugungi kunda jahon yalpi ichki mahsulotining (YAIM) salmoqli qismi, xizmatlar eksportining qariyb 30 foizi aynan xalqaro turizm hissasiga toʻgʻri kelayotgani fikrimizning yaqqol dalilidir. Ammo, zamonaviy globallashuv jarayonlari turizm bozorida keskin raqobat muhitini shakllantirdi. Endilikda mamlakatlar oʻzlarining tabiiy va tarixiy resurslari bilan emas, balki turistlarga taklif etayotgan innovatsion xizmatlari, qulay raqamli platformalari va xavfsizlik kafolatlari bilan raqobatlashmoqda.

Jahon turizm tashkiloti (UNWTO)ning 2024-yil yakunlari boʻyicha eʼlon qilgan hisobotiga koʻra, global turizm industriyasi pandemiyadan keyingi tiklanish bosqichini toʻliq yakunladi. 2024-yilda xalqaro sayyohlar oqimi 2019-yilgi inqirozgacha boʻlgan darajadan 2

foizga oshdi, sohaning global iqtisodiyotdagi moliyaviy hissasi esa rekord darajaga - 11,1 trillion AQSH dollariga yetishi prognoz qilingan edi.

Oʻzbekiston Respublikasida ham soʻnggi yillarda turizm strategik tarmoq darajasiga koʻtarildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev taʼkidlaganidek: "Turizm - bu iqtisodiyot, turizm - bu investitsiya, turizm - bu yangi ish oʻrinlari demakdir". "Oʻzbekiston – 2030" strategiyasi doirasida mamlakatimizni mintaqaviy turizm xabiga aylantirish, 2025-yilga qadar xorijiy sayyohlar sonini 12 million nafarga, turizm xizmatlari eksportini esa 2,5 milliard AQSH dollariga yetkazish vazifasi qoʻyilgan.[1. PF-158-son.] Ushbu ulkan maqsadlarga erishish faqatgina ekstensiv (son jihatdan) oʻsish hisobiga emas, balki sohani innovatsion (sifat jihatdan) rivojlantirish orqali amalga oshishi mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada koʻtarilgan muammolarni oʻrganish va ilmiy yechimlar ishlab chiqishda quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi: Tizimli tahlil: Turizm sohasiga yaxlit iqtisodiy tizim sifatida yondashilib, uning tarkibiy qismlari (turoperatorlar, mehmonxonalar, transport logistikasi, davlat boshqaruvi) oʻrtasidagi oʻzaro aloqalar va innovatsion jarayonlarning taʼsiri oʻrganildi. Qiyosiy tahlil: Rivojlangan mamlakatlar (Ispaniya, Turkiya, BAA) va Oʻzbekistonning turizm sohasidagi innovatsion strategiyalari solishtirildi. Bu orqali milliy bozorga mos keluvchi "best practices" (ilgʻor tajribalar) aniqlandi. Statistik guruhlash va trendlarni baholash: Oʻzbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Turizm qoʻmitasi hamda xalqaro tashkilotlar (UNWTO, WTTC)ning 2019-2024 yillardagi maʼlumotlari asosida dinamik oʻzgarishlar tahlil qilindi. Mantiqiy deduksiya va induksiya: Umumiy iqtisodiy nazariyalardan (Y.Shumpeterning innovatsiya nazariyasi) kelib chiqib, xususiy xulosalar chiqarildi hamda amaliy faktlar asosida nazariy takliflar shakllantirildi. Prognozlashtirish: Mavjud oʻsish surʼatlari (Trend line) asosida 2025-2026 yillar uchun kutilayotgan natijalar modellashtirildi.[2. PF-60-son.] Tadqiqotning axborot bazasini Oʻzbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, Prezident farmonlari, xalqaro tashkilotlarning yillik hisobotlari va mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tashkil etdi.

**Adabiyotlar tahlili.** Innovatsiya tushunchasi va uning iqtisodiy taraqqiyotdagi oʻrni dastlab Yozef Shumpeter tomonidan ilmiy asoslab berilgan. U oʻzining "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" asarida innovatsiyani "yangi kombinatsiyalar"ni amalga oshirish jarayoni sifatida taʼriflaydi. Turizm sohasida innovatsiyalarning oʻziga xos xususiyatlari esa P.Druker, M.Porter kabi gʻarb iqtisodchilari hamda mahalliy olimlardan I.Tuxliyev, M.Pardaev, N.Toʻxliyevlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, bugungi kunda koʻpgina tadqiqotlar innovatsiyani global iqtisodiyotga toʻliq boʻysunuvchi element sifatida koʻradi. Biroq, turizm xizmatlarining nomoddiyligi (saqlab boʻlmasligi, ishlab chiqarish va isteʼmolning bir vaqtda sodir boʻlishi) sababli, sanoatdagi innovatsiya modellarini toʻgʻridan-toʻgʻri turizmga koʻchirib boʻlmaydi. Shu bois, soha olimlari oldida "Raqamli turizm ekotizimi"ni yaratishning metodologik asoslarini ishlab chiqish muammosi dolzarb boʻlib turibdi.

**Asosiy qisim.** Turizmni innovatsion rivojlantirishda rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi: Jahon amaliyotini oʻrganish shuni koʻrsatadiki, turizm sohasida yetakchi oʻrinlarni egallagan davlatlar oʻz muvaffaqiyatlariga aynan innovatsion ekotizimni yaratish orqali erishganlar. Ushbu tadqiqot doirasida Oʻzbekiston uchun namuna boʻla oladigan quyidagi mamlakatlar — Ispaniya, Turkiya va BAA tajribalari tahlil qilindi.

Ispaniya tajribasi (Segittur modeli): Ispaniya dunyoda birinchi boʻlib "Aqlli turizm manzillari" (Smart Tourism Destinations) davlat standartini joriy etgan mamlakatdir. Ularning

tajribasidagi eng muhim jihat - bu "Segittur" davlat kompaniyasi faoliyatidir. Bu tashkilot turizm va texnologiyani birlashtirib, har bir shahar uchun bepul Wi-Fi hududlari, sensorli ma'lumot kiosklari va turistlarning harakatini kuzatuvchi "Big Data" markazlarini yaratgan.[4.25.] Mazkur amaliyot O'zbekiston uchun ahamiyati qanday. Masalan, Ispaniya modeli asosida Samarqand va Buxoro shaharlarida yagona raqamli boshqaruv markazlarini tashkil etish, turistlar oqimini to'g'ri taqsimlash va "mavsumiylik" muammosini hal qilishda qo'l keladi.

Turkiya tajribasi (Marketing va Klasterlar): Turkiya turizmni rivojlantirishda "GoTürkiye" raqamli platformasidan samarali foydalanadi. Ular sun'iy intellekt yordamida har bir turistning millati va qiziqishiga qarab individual reklama ko'rsatish tizimini yo'lga qo'ygan. Shuningdek, Turkiya "Turizm klasterlari" (masalan, Antaliya - dengiz turizmi, Kapadokiya - havo sharlari va g'or turizmi) tizimini mukammal shakllantirgan. Mazkur tizimdan O'zbekiston uchun ahamiyatini o'zlashtirish mumkin. Jumladan, bizda ham hududiy ixtisoslashuvni chuqurlashtirish zarur. Masalan, Navoiy viloyatida "Sahro turizmi" va Surxondaryoda "Buddistik turizm" klasterlarini yaratishda Turkiya tajribasi qo'llanilishi lozim.

BAA (Dubay) tajribasi (Blockchain va VR): Dubay hukumati "Dubai Tourism Blockchain" strategiyasi orqali mehmonxonalar va turoperatorlar o'rtasidagi barcha shartnomalarni shaffof blokcheyn tizimiga o'tkazgan. Bu korrupsiya va ortiqcha xarajatlarni yo'qotib, xizmat narxini arzonlashtirishga olib kelgan. Bundan tashqari, Dubay aeroportidayoq turistlarga VR-ko'zoynaklar orqali shaharning diqqatga sazovor joylari namoyish etilib, ularda qiziqish uyg'otiladi.

Turizm sohasini innovatsion rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari tahlilini ko'rib chiqamiz. Masalan, jahon va O'zbekiston bozoridagi joriy holat. 2024-2025-yillar turizm industriyasi uchun "Post-pandemiya davridan - Innovatsion o'sish davriga" o'tish bosqichi bo'lib xizmat qilmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy turizm modellari o'rnini asta-sekin gibrid va raqamli modellar egallamoqda. Biz quyidagi jadvalda O'zbekiston turizm bozorining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi va prognozlarini keltirganmiz:

**O'zbekiston Respublikasida turizm sohasining asosiy rivojlanish ko'rsatkichlari (2023-2026 yillar)**

| Ko'rsatkichlar | 2023-yil (Fakt) | 2024-yil (Baholash) | 2025-yil (Prognoz) | 2026-yil (Maqsad) |
|---|---|---|---|---|
| Xorijiy sayyohlar soni (mln kishi) | 6.6 | 10.0 | 12.0 | 15.0 |
| Turizm xizmatlari eksporti (mlrd AQSH $) | 2.1 | 2.5 | 3.0+ | 5.0 |
| Ichki sayyohlar oqimi (mln kishi) | 15.0 | 18.0 | 20.0 | 25.0+ |
| Joylashtirish vositalari soni (birlik) | ~5,500 | ~6,000 | 6,500+ | 7,000+ |

*(Manba: O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.)*

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2026-yilga borib xorijiy sayyohlar sonini qariyb ikki baravarga oshirish rejalashtirilgan. Bunday keskin o'sishni faqatgina infratuzilmani (mehmonxona, yo'l) qurish bilan ta'minlab bo'lmaydi. Bu yerda innovatsion multiplikator samarasi ishga tushishi kerak buladi.

Turizmda innovatsion transformatsiya yo'nalishlari. Tadqiqotlarimiz natijasida O'zbekiston turizmida kuzatilayotgan uchta asosiy innovatsion tendensiya aniqlandi: Jumladan,

birinchi — Mahsulot innovatsiyasi (Product Innovation). Avvallari turistlar faqat tarixiy shaharlarga (Samarqand, Buxoro, Xiva) qiziqqan boʻlsa, hozirda yangi turistik mahsulotlar paydo boʻlmoqda. Masalan, Zomin va Boʻstonliq hududlarida “ekoturizm”, Fargʻona vodiysida “gastronomik turizm” va Surxondaryoda “arxeologik turizm” klasterlarining tashkil etilishi bunga misol boʻladi. Ikkinchi — Jarayon innovatsiyasi (Process Innovation). Raqamlashtirish jarayonlari xizmat koʻrsatish tezligini oshirmoqda. “E-mehmon”, “E-visa” tizimlarining joriy etilishi byurokratik toʻsiqlarni qisqartirdi. Uchinchi — Marketing innovatsiyasi. Ijtimoiy tarmoqlar (TikTok, Instagram) va influenserlar orqali “Oʻzbekiston brendi”ni targʻib qilish an’anaviy koʻrgazmalardan koʻra yuqoriroq samara bermoqda deyishimiz mumkin.

Bundan tashqari, raqamli platformalar samaradorligi tahlilini ham koʻrib chiqishimiz mumkin. Xususan, bugungi kunda Oʻzbekistonda mavjud boʻlgan raqamli platformalar (“Uzbekistan.travel”, “E-mehmon”) asosan axborot berish xususiyatiga ega boʻlib, interaktiv xizmatlar ulushi pastligicha qolmoqda. Masalan bizning tahlillarimiz shuni koʻrsatadiki, agar Oʻzbekistonda turizm xizmatlarini bron qilish (band qilish) jarayoni yagona milliy ilovaga oʻtkazilsa, quyidagi iqtisodiy samaralarga erishishi mumkin buladi. Masalan, Tranzaksiya xarajatlarining qisqarishi, turoperator va mehmonxona oʻrtasidagi vositachilik haqining kamayishi hisobiga xizmat narxi 10-15% ga arzonlashadi. Bundan tashqari, yashirin iqtisodiyotga barham berish, barcha toʻlovlar raqamli shaklda amalga oshirilishi sohadagi moliyaviy oqimlarning shaffofligini ta’minlaydi. Shuningdek, vaqt tejamkorligi, har bir sayyoh viza olishdan tortib, taksi chaqirishgacha boʻlgan jarayonni bir necha daqiqada hal qiladi.

Umuman olganda, “Aqlli turizm” (Smart Tourism) konsepsiyasi — globallashuv sharoitida raqobatbardoshlikning asosiy shartidir. Bu “Aqlli turizm” tizimiga oʻtishdir. Bu tizim sayyohlarning katta hajmdagi ma’lumotlarini (Big Data) tahlil qilish asosida ularga individual xizmatlarni taklif etishni nazarda tutadi.

Muammo: Oʻzbekistonda hozircha yagona integratsiyalashgan milliy turizm platformasi (SuperApp) mavjud emas. Turist transport uchun alohida, mehmonxona uchun alohida, muzey biletlari uchun alohida ilovalardan foydalanishga majbur boʻlishmoqda. Bunga echim sifatida, barcha xizmatlarni bitta ekotizimga birlashtirish orqali vaqt va xarajatlarni 20-30% ga qisqartirish mumkin.

Amaliy takliflar va tavsiyalar: Oʻtkazilgan tahlillar va aniqlangan muammolardan kelib chiqib, Oʻzbekiston turizm sohasini innovatsion rivojlantirish boʻyicha quyidagi konseptual va amaliy takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, “Raqamli turizm ekotizimi”ni yaratish. Xitoyning “WeChat” yoki Dubayning “Dubai Now” tajribasi asosida Oʻzbekistonda barcha turistik xizmatlarni (transport, ovqatlanish, gid, tibbiy sugʻurta, politsiya yordami) oʻzida jamlagan yagona milliy mobil ilovani ishga tushirish zarur. Bu ilova sun’iy intellekt (AI) yordamida sayyohning qiziqishiga qarab, unga shaxsiy marshrut tuzib berish imkoniyatiga ega boʻlishi kerak.

Ikkinchidan, “Turizm innovatsiya indeksi”ni joriy etish. Respublika hududlari (viloyatlar) kesimida turizmning innovatsion rivojlanish darajasini baholovchi reyting tizimini ishlab chiqish. Bunda faqat turistlar soni emas, balki raqamli xizmatlar sifati, Wi-Fi qamrovi, “yashil texnologiyalar”dan foydalanish darajasi asosiy mezon boʻlishi lozim.

Uchinchidan, kadrlar tayyorlashda “Dual ta’lim” va VR texnologiyalari. Turizm sohasidagi oliy oʻquv yurtlarida talabalarni oʻqitishda VR (Virtual Reality) koʻzoynaklari orqali tarixiy obidalarni oʻrganish va virtual gidlik qilish koʻnikmalarini shakllantirish. Shuningdek,

talabalarning oʻqish vaqtining 50 foizini bevosita mehmonxona va turoperatorlarda oʻtkazishini taʼminlash.

Toʻrtinchidan, “Kraudfanding” (Crowdfunding) platformalarini jalb qilish. Kichik turistik loyihalar (masalan, etno-uy mehmonxonalari yoki hunarmandchilik markazlari) uchun bank kreditlaridan tashqari, aholi va xorijiy investorlardan toʻgʻridan-toʻgʻri mikrosarmoya jalb qilish imkonini beruvchi investitsion onlayn maydonchalarni tashkil etish.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, globallashuv sharoitida Oʻzbekiston turizm sohasining kelajagi uning innovatsion moslashuvchanligiga bogʻliq. 2024-yildagi tiklanish jarayonlari shuni koʻrsatdiki, dunyo sayyohlari endilikda shunchaki tomosha qilishni emas, balki qulaylik, tezlik va yangi taassurotlarni xohlamoqda.

Tadqiqotimiz shuni aniqlashtirdiki, 2025-yil yakunlari boʻyicha shakllangan tendensiyalar va “O’zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida belgilangan 15 millionlik sayyohlar oqimi hamda 5 milliard dollarlik eksport rejasiga erishish uchun endilikda an’anaviy usullar yetarli emas. Yangi 2026-yildan boshlab “Aqlli turizm” texnologiyalarini keng joriy etish, xizmat koʻrsatish jarayonlarini toʻliq raqamlashtirish va innovatsion tadbirkorlik muhitini qoʻllab-quvvatlash hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi Oʻzbekistonni Markaziy Osiyoning nafaqat tarixiy, balki innovatsion turizm markaziga aylanishini taʼminlaydi.

## Adabiyotlar/Литература/References:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi toʻgʻrisidagi PF-158-son Farmoni.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-60-son Farmoni.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Statistika agentligi maʼlumotlari (stat.uz), 2024-yil.
4. World Travel & Tourism Council (WTTC). (2024). Economic Impact Research: Global Trends.
5. Tuxliyev I.S., Qudratov Gʻ.H., Pardaev M.Q. Turizmni rejalashtirish. – T.: Iqtisod-Moliya, 2010.
6. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. Harvard University Press, 1934.
7. UNWTO World Tourism Barometer (2024). Volume 22, Issue 2. Madrid, Spain.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 4 (6) – 2026*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).